

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 2

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O’RINBOSARI

Karomat Mullaxo’jayeva (o’zbek)

Qosimjon Ma'murov (ingliz)

MAS’UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY’ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To’xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurbboy Jabborov

G’aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo’ldosh Pardayev

Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon)

Nodirbek Jo’raqo’ziyev

MUNDARIJA

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ilyos Ismoilov

Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar 4

Jahongir Turdiyev

Turkiy me’rojnomalardagi motivlar xususida 20

MATNSHUNOSLIK

Abdimurod Arslonov

“Temurnoma”larning matniy xususiyatlari 34

G’iyosiddin Shodmonov

O’zbek matnshunosligining ilk bosqichi va Navoiy “Xamsa”si nashrlarining takomili 50

Aftondil Erkinov

Oysara Madaliyeva

“Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya”sining so’nggi redaksiyasi? 64

Ilova. Matn

68

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)	
Kasimjon Mamurov (English)	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojiboeva	
EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Vahit Turk (Turkey)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Yusupova Dilnavoz	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
LITERATURE	
Ilyos Ismoilov	
Interpretations on the subject of Alexander in Tafsir	4
Jahongir Turdiev	
Motives in Turkic Mi'rajnama	20
TEXTOLGY	
Abdimurod Arslonov	
Text features of "Temurnoma"	34
Giyosiddin Shodmonov	
The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa	50
Aftondil Erkinov	
Oysara Madalieva	
The latest edition of Terma Devon or Navoi's Navodir un-nihoya?	64
Appendix. Text	68

O'zbek matnshunosligining ilk bosqichi va Navoiy "Xamsa"si nashrlarining takomili

G'iyosiddin Shodmonov¹

Abstrakt

O'zbek matnshunosligi va manbashunosligi sohalarida o'tgan asrning o'rtalarida Alisher Navoiy asarlarini tadqiq qilish, xususan, shoirning "Xamsa" dostonlari ommaviy nashrlarini amalga oshirish, ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda yaratilgan ko'plab nashrlarda "Xamsa" dostonlari qo'lyozmalarini o'rganishda maktab yaratgan, uning ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzgan matnshunos – Porso Shamsiyevning xizmatlari katta. Olimning sohada olib borgan ilmiy-amaliy faoliyatini tadqiq etish, ilmiy tajribalarini o'zlashtirish, qolaversa, P.Shamsiyev tomonidan yoki bevosita uning ishtirokida amalga oshirilgan nashrlarni nazariy jihatdan tekshirish matnshunoslikning ustuvor vazifalaridan. Albatta, ustoz olimlar faoliyatini o'rganish, nashr va ilmiy-tanqidiy matn tuzish borasidagi tajribalarini o'zlashtirish matnshunoslik sohasida yangi qarashlarning shakllanishida, uning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishda, umuman, sohadagi mavjud muammolarning yechimini topishda juda muhim.

Mazkur maqolada "Xamsa" dostonlari nashri tarixi va u bilan aloqador jarayonlar, umuman, o'zbek matnshunosligi erishgan dastlabki yutuqlar va tajribalar hamda ularning ahamiyati tahlil etilgan, tegishli ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *matnshunoslik, manbashunoslik, Navoiy, Xamsa, qo'lyozma, nusxa, ilmiy-tanqidiy matn, nashr, doston, asar, jild, nasriy bayon, izoh, lug'at.*

Kirish

XX asr Navoiy merosini keng qamrovda o'rganish, asarlarining ko'p nusxali nashrlarini amalga oshirish davri bo'ldi. Bu

¹ Shodmonov G'iyosiddin Nafasovich – tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti.

E-mail: shodmonov786@gmail.com

ORCID ID:0000-0002-0778-8385

Iqtibos uchun: Shodmonov, G.N. 2021. "O'zbek matnshunosligining ilk bosqichi va Navoiy "Xamsa"si nashrlarining takomili". *Oltin bitiglar* 2: 50-63.

ishlar, ayniqsa, ulug' shoir tavalludining 500 yilligini nishonlash munosabati bilan yana ham jonlanib ketdi. Mazkur davr "Xamsa" tarkibidagi dostonlarning matnshunoslik mezonlari asosida jiddiy tadqiq qilingani va navoiyshunoslikning yangi bosqichga ko'tarilgani bilan katta ahamiyatga ega.

Adabiyotshunos G'ulom Karimov Navoiy "Layli va Majnun" dostonining ilmiy-tanqidiy matni ustida tadqiqot olib borayotgan jarayonlarda "Xamsa"ning ommaviy nashrlari xususida to'xtalib, shunday fikr bildirgan edi: "Bularning hammasi ham xarakter e'tibori bilan ommaviy nashr bo'lib, hech birida asl Navoiy tekstlarini tiklash, bugungi ma'nodagi ilmiy-tanqidiy tekst hozirlash masalasi vazifa qilib qo'yilmagan. Shunday bo'lishiga qaramay, ularning tajribasi bilan tanishish, Navoiy tekstlarini qanday nashr qilib kelganlarini ko'zdan kechirib chiqish "Layli va Majnun" dostonini akademik nashrga hozirlashda foydadan holi bo'lmaydi" [Каримов 1944, 7].

Bizningcha ham matnshunos olimlar erishgan ilmiy natijalardan, ular to'plagan tajribalardan boxabar bo'lish har jihatdan foydali. Jumladan, ushbu tadqiqotdan quyidagicha amaliy natijalar olinadi:

birinchidan, bu o'zbek matnshunosligining dastlabki qadamlari haqidagi tasavvurimizni boyitadi. Uning tarixi va olimlar erishgan ilmiy natijalardan boxabar bo'lish, o'z o'rnida, sohaning keyingi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

ikkinchidan, orttirilgan tajribalar, chiqarilgan ilmiy xulosalar soha bilan bog'liq yangi g'oyalar, qarashlar hamda yangicha yondashuv mezonlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi;

uchinchidan, sohaning eng dolzarb masalalarini o'rganish hamda ularning yechimini topish (xususan, ilmiy-tanqidiy matn tuzish va akademik nashrlarning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish)da tajribali matnshunos olimlar laboratoriyasini chuqur tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Navoiy asarlarining ilk nashrlari

Alisher Navoiy asarlarini keng ko'lamda chop etish ishlari, asosan, 1938-39-yillardan boshlangan bo'lsa-da, ungacha ham shoir asarlarining ayrimlari bilan qisman tanishishga imkon beruvchi nashrlar bor edi. Bu borada, avvalo, Fitratning Navoiy "Xamsa"sig oid izlanishlarini ta'kidlash o'rinli [Фитрат 2000, 11]. Xususan, XX asr boshlarida (1927/28-yillarda) uning sa'y-harakatlari bilan chop etilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" [1928 فيتره ت] to'plamida o'zbek adabiyotining ilk davrlaridan XVI asrgacha yashab ijod qilgan adiblarning she'riy va nasriy asarlaridan namunalar kiritilgan

[Хамроев 2019, 113]. Mazkur nashrlar talabiga qarab ibtidoiy tarzda bo'lsa ham ayrim tekstologik ishlar olib borilgan. Biroq mustaqil fan darajasiga ko'tarilgan zamonaviy matnshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, ular sohaning eng oddiy talablariga javob berishi mushkul. Qisqa qilib aytganda, 40-yillargacha shoir asarlarining turli davrlarga tegishli qo'lyozmalari qisman aniqlangan, biroq ushbu ulkan merosni chuqur o'rganish, g'oyaviy jihatdan yetuk asarlarni xalqqa yetkazish masalasi dolzarbligicha qolayotgan edi. Shu bois undan keyingi davr navoiyshunosligi erishgan yutuqlar salmog'ini e'tirof qilish joiz.

Erishilgan yutuqlarning muayyan qismi bevosita ustoz matnshunos P.Shamsiyev xizmatlari bilan bog'liq. 1938-yili hukumatning maxsus qaroriga binoan Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubiley doirasida shoir asarlarining o'n tomligini nashr etish ishlari rejalashtiriladi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda maxsus komissiya tuziladi. Uning asosiy vazifasi ulug' shoir qo'lyozmalarini to'plash va shular asosida nashr ishlarini amalga oshirish edi. Ushbu komissiya tarkibida bo'lgan Porso Shamsiyev shoir qo'lyozmalarini aniqlash va nashr ishlarida bevosita ishtirok etadi. Olim bu jaryonlarni tashkil etish borasida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "U vaqtlarda o'tmish adabiyotini, shu jumladan, Navoiy asarlarini nashr etish ishi yangidan o'rtaga tashlangan qiyin masala kabi tuyilar edi, ishni qay taxlitda, qay usulda boshlash, qanday qilib adabiy asarlarni ommaga yetkazish masalasi adabiyotshunoslarimizni jiddiy o'ylovga solgan edi... u vaqtlarda, ya'ni o'ttiz yillar muqaddam (1938-yillar nazarda tutilyapti) klassik adabiyotni, shu jumladan, Navoiy asarlarini nashrga tayyorlash ishida qanchalik qiyinchilik yuz bergan bo'lsa, matn tuzish, matnni saralash masalasi undan ham og'ir va chigal edi. Nashr ishida qanchalik tajribasizlik bo'lsa, matnshunoslik masalasi ham shunday bir qiyin va murakkab proses bo'lib ko'rinar edi" [Шамсиев 1969, 3].

Hukumat qo'mitasining bu boradagi dastlabki qarori Navoiy asarlarini, xususan, uning dostonlari matnini adabiy til normalariga muvofiq nasriy ifodada nashr etish bo'ldi. Ba'zi asarlarni esa maxsus izoh va lug'atlar ilova qilingan holda chop qilish ko'zda tutildi. Mazkur jarayondagi eng muhim vazifa shoir asarlarining fanga ma'lum qo'lyozmalarini ilmiy tavsiflash bo'ldi va bu juda katta mas'uliyat va aniqlik bilan ishlashni talab qilardi. Ayni vazifa professor A.Semyonov tomonidan amalga oshirildi. U davlat xalq kutubxonasining Sharq bo'limida saqlanayotgan Navoiy asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifini tuzib chiqadi [Semenov 1940]. Keyinroq, ya'ni 1946-

yili S.L.Volin shoir asarlarining Sankt-Peterburgda saqlanayotgan qo'lyozmalari tavsifini e'lon qildi [Волин 1946, 214–217].

Nashr ishi asoslari bir qadar belgilab olingandan so'ng chop etiladigan asarlarning dastlabki ketma-ketligi quyidagicha rejalashtiriladi:

1. *"Mahbub ul-qulub"*.
2. *"Muhokamat ul-lug'atayn"*.
3. *"Farhod va Shirin"*.
4. *"Layli va Majnun"*.
5. *"Xamsa"*.
6. *"Chordevon"*.
7. *"Saddi Iskndariy"*.
8. *"Hayrat ul-abror"*.

Ilk marotaba tekstologik tadqiqot yo'li bilan nashr etilgan "Xamsa" dostonlarining biri – "Farhod va Shirin"dir. 1940-yili mazkur ish atoqli adib G'afur G'ulom tomonidan tayyorlangan. Ushbu nashrning eng afzal jihatlaridan biri – doston matniga qo'shib uning nasriy ifodasi berilganidir. P.Shamsiyevning ta'kidlashicha, ushbu nasriy ifoda Navoiyning boshqa dostonlariga berilgan nasriy bayonlardan mazmun va asl matnga yaqinligi jihatidan eng yaxshisidir [Шамсиев 1969, 5].

Bizningcha, ishning muayyan darajada muvaffaqiyatli chiqqani Navoiy yubileyi qo'mitasi tomonidan tuzilgan maxsus tekstologiya komissiyasining ishtiroki bilan ham bog'liq. Toshkent davlat xalq kutubxonasi Sharq bo'limining ilmiy xodimi, qo'lyozmalar mutaxassisi Qori Ibod Odilov, qadimiy adabiyot bilimdoni Abdullo Nasriddinov (Boqiy taxallusi bilan ijod qilgan shoir – G'.Sh.), G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va Porso Shamsiyevdan tarkib topgan komissiyaning maqsadi – matnni yanada puxta, nuqsonlardan holi variantini tayyorlash hamda uning nasriy ifodasini asl matnga muvofiqlashtirib berish edi. Shunday bo'lishiga qaramay, ishda katta-kichik nuqsonlar mavjud.

Matnshunos A.Habibullayevning ta'kidlashicha, ommaviy nashr uchun odatda ko'p nusxali matnlardan bir tayanch nusxa tanlab olinib, uning kamchiliklari boshqa nusxalar yordamida bartaraf etiladi va bu ishlar nashr uchun yozilgan so'z boshida batafsil yoritiladi (bir nusxali qo'lyozmalar bundan mustasno). Bunday nashrlar lozim topilsa, izohlar, qiyin so'zlar lug'ati kabi ma'lumotnomalar bilan ta'minlanadi [Хабибуллаев 2000, 127]. Yuqoridagi nashrning birinchi kamchiligi ham asl matnga yaqin mo'tabar qo'lyozma manbalarning aniqlanmaganligidir. Ishda

to'g'ri kelgan qo'lyozma va toshbosmalardan foydalanish, qolaversa, nusxalararo farqlarning ko'rsatilmasligi, umuman, qo'lyozma nusxalarning hech biriga ilmiy tavsif berilmaganli natijasida bajarilgan ish o'z bahosini olmadi.

Matnshunos olim Sh.Sirojiddinov: "Matn tarixini o'rganish qo'lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi", – deydi [Сирожи́ддинов 2019, 7]. Olim tekstologik ishlarda qo'lyozma manbalarning saralanishini eng birinchi o'ringa qo'ygani bejiz emas, albatta. Chunki, aynan mana shu jarayondan muvaffaqiyatli o'tish ishning keyingi bosqichlari uchun juda muhim sanaladi. Asl matnga muvofiq, unga eng yaqin turuvchi manbalar birinchi navbatda aniqlab olinmasa, ularning ilmiy tavsifini berishdan ham, o'zaro farqli jihatlarini ko'rsatishdan ham biror naf chiqmasligi tayin va ish samarasiz yakunlanishi shubhasiz.

"Farhod va Shirin" nashridagi kamchiliklar undan keyin chop etilgan "Layli va Majnun" hamda "Saddi Iskandariy" dostonlarida ko'payib takrorlanadi. Birinchi doston Amin Umariy va tojikistonlik adabiyotshunos olim Sharif Husaynzoda, ikkinchisi esa Yunus Latif hamda Inoyat Maxsumov tomonidan tayyorlangan edi. Ular bizga noma'lum jiddiy sabab tufayli nashr masalasiga yengil yondashganlar. Yo'qsa, mavjud qo'lyozma manbalar ustida izlanish olib bormay, jiddiy tadqiqotlarga kirishmay, birgina Shohmurod kotib ko'chirgan bosma nusxadan to'g'ridan-to'g'ri yangi alifboga ko'chirib qo'yishmas edi. Porso Shamsiyevning ma'lumot berishicha, Navoiy yubileyi komiteti bu ishni tekstologiya komissiyasi nazoratidan o'tkazishga ham urinmagan. Shu bois mazkur nashr nuqsonlar bilan bosmadan chiqqan.

Dastlabki ommaviy nashrlar haqida gap ketganda, ulardagi qator kamchiliklarning sababini hali rivojlanib ulgurmagan, prinsiplari yetarli darajada ishlab chiqilmagan matnshunoslik bilan bog'lab o'rganish kuzatiladi. Bu bir jihatdan to'g'ri, chunki fan-texnologiya rivojlanmagan, urush hamda boshqa sabablarga ko'ra o'zga xalqlar matnshunosligi tajribalarini o'zlashtirish kechikkan... Lekin, tekstologik jarayonlarda nashr masalasiga yuzaki qarab, ushbu vazifaning mas'uliyati va mohiyatini to'liq anglamay bajarilgan ishlarni ham tan olish kerak. Afsuski, Navoiy merosini ommaga tanishtirish doirasida amalga oshirilgan ana shunday ayrim tadqiqotlar yetarli samara bermadi.

Biroq og'ir sharoitlarda ham matn ishiga katta mas'uliyat, ulug' ajdodlar va ularning ijodiga yuksak hurmat hissi bilan yondashib, ulkan fidoyilik ko'rsatgan matnshunoslar xizmatini e'tirof

qilish lozim. Aynan ularning xizmati bilan o'zbek matnshunosligi dastlabki qadamlarini tashladi. Sohaning taraqqiy eta borishi va bugungi kundagi darajasi ushbu matnshunoslar faoliyati bilan bevosita bog'liq.

Matniy yondashuv natijalari, nashrlar va yutuqlar

"Hayrat ul-abror" dostonini 1941-yili nashrga tayyorlashda Olim Sharafiddinov rahbarligida S.Mutallibov, A.Nasriddinov, M. Faxriddinov va I. Ahmedov jonbozlik ko'rsatdilar. E'tiborlisi, ular qo'lyozma manbalarni saralash, muayyan nusxalarni ishga jalb qilish va ularni qiyoslash borasida o'zgacha uslubda tadqiqot olib bordilar. Bu esa matnshunoslikda yangi qarash va yangicha tafakkurning shakllanishiga sabab bo'ldi. Ushbu matnshunoslik ishining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Birinchi galda mavjud qo'lyozmalar ichidan eng ishonchli va qadimiylari tanlab olingan (bunda XV–XVI asrga tegishli qadimiy nusxalar asos manba vazifasini bajargan).

2. Muqaddima qismida qo'lyozma manbalarga qisqacha izoh berilgan.

3. O'zFA Til, adabiyot va tarix instituti Navoiy bo'limining tekstologiya komissiyasi ishlab chiqqan "Xamsa" matnlari va XIX asrga oid boshqa qo'lyozmalar, shuningdek, Toshkent hamda Xiva [Бердимуров 880] toshbosmalari tayanch manba sifatida qabul qilingan.

4. Ilmiy apparatda nusxalararo farqlar ko'rsatilgan (lekin juda kam o'rinlarda);

5. Vazn taqozosi bilan unli tovushlarning cho'ziq-qisqa o'qilishini ko'rsatuvchi maxsus belgi ishlab chiqilgan.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, dostonning qisqartirilgan nasriy ifodasi, shuningdek, muhim ilmiy-tarixiy izohlarning berilishi, lug'at va maxsus nomlarning izohli ko'rsatkichining ilova qilinganligi ham ishning yutug'idir. Umuman olganda, "Hayrat ul-abror" dostonining ushbu nashri Navoiy asarlarining keyingi nashrlari uchun kichik namuna, tajriba bo'ldi va matnshunoslikning dastlabki tamoyillari paydo bo'lishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ulug' mutafakkir ijodidan ommani bahramand etish borasida Sadriddin Ayniyning xizmatlarini ham eslab o'tish o'rinlidir. Olim "Xamsa"ning barcha dostonlarini jamlab, turli qisqartirishlar bilan nashr ettirdi. Ayniy asarga yozgan so'zboshida dostonni nashrga tayyorlashdagi prinsiplari haqida to'xtab, shunday deydi: "Bu nusxani

tartibga solishda har bir doston va bo'limlardan xarakterli bo'lgan parcha va misralarni terib oldim. Ammo har bir doston va boblarning ayrim tashlangan parcha va misralarning mazmunini bayon qildim. San'atkorona ishlangan, lekin u san'at oddiy o'quvchilarning ko'ziga ilinmay qoladigan, tushunish qiyinroq bo'lgan misra va baytlarni, shuningdek, Navoiyning shaxsiy hayotiga yoki zamondoshlariga oid bo'lgan joylarni izohlab o'tdim. Ba'zi parcha va hikoyalarning tuzilishlari va ulardagi qahramonlar to'g'risidagi o'z fikrimni ham bet ostida bayon qildim. Tushunilishi qiyin ko'ringan ayrim so'zlarga lug'atcha tuzdim. Shu tanlangan nusxada duch kelgan ayrim tarixiy nomlar uchun ham qisqacha tarjimai hol yozdim" [Айний 1940, 11].

Sadriddin Ayniy ish davomida dostonlardagi voqeabandlikni, syujet chizig'ini yo'qotmaslik uchun qisqartirilgan o'rinlarni nasriy bayon bilan to'ldirib borgan. Bu esa mantiqiy izchillikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, Sadriddin Ayniy mavjud manbalardan imkon qadar foydalanib, bayt va misralarni asliyatga yaqin variantlarini matnga kiritishga harakat qilgan. Ba'zi o'rinlarda nusxalarda uchragan farqlarning ko'rsatib borilishi, uning bir emas, bir nechta qo'lyozma nusxalardan foydalanib ish tutganidan darak beradi.

1938–1949-yillar davomida mumtoz adabiyot vakillari, jumladan, Alisher Navoiy asarlarining bir qancha nashrlari yuzaga keldi. Ularning ba'zilari biroz bo'lsa-da, mukammallashtirilgan holda qayta nashr ham qilindi. Navoiy asarlarining ushbu nashrlarini ikki davrga ajratish o'rinli:

1. II jahon urushigacha bo'lgan nashrlar.
2. Urushdan keyin chop etilgan asarlar.

Urushdan keyin, ayniqsa, Navoiy hayoti, faoliyati va ijodini o'rganish borasidagi tadqiqotlar ko'lami ancha kengaydi. Notinchlik sabab to'xtab qolgan ulug' mutafakkir yubileyiga qayta tayyorgarlik boshlanadi. Shu munosabat bilan shoirning ilgari bosilgan asarlarini qayta nashr etish va hali maydonda ko'rinmagan, qo'lyozma holida turgan boshqa asarlarini ham ommaga taqdim etish maqsadida katta adabiyotshunos olimlar guruhi ishga jalb etildi. Buning natijasida Alisher Navoiyning IV jildli tanlangan asarlari yuzaga keldi. Jildlar turkumi quyidagicha tartiblandi:

- I jild: Lirik she'rlar – Devon;
- II jild: "Xamsa" dostonlari;
- III jild: "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn";
- IV jild: Nasriy asarlar.

Rejaga ko'ra, II jildga kirgan birinchi kitob – "Hayrat ul-abror"dan tashqari barcha dostonlar nashrga tayyorlanib, turli yillarda bosib chiqarildi. Ushbu asarning chop etilmagani bilan bog'liq masalaga keyinroq alohida to'xtaymiz.

Mazkur nashrlarning oldingilaridan birinchi farqi ularning nasriy bayonsiz chop etilganligidir. Biroq an'anaga ko'ra, ushbu kitoblarning oxirida ham maxsus lug'at va ko'rsatkichlar berilgan.

1. "Farhod va Shirin". Doston beshinchi bobdan boshlangan. Bu ishda mas'ul muharrir Hodi Zarifning xizmatlari katta. Til va adabiyot instituti tomonidan kitobga berilgan izohda doston matni qadimiy ikkita nusxa asosida tayyorlangani aytiladi: "Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini qayta nashrga tayyorlashda hozir qo'lda mavjud bo'lgan "Xamsa"larning eng eski ikki nusxasi asosga olindi. Bularning har ikkalasi ham Navoiyning barhayot vaqtida ko'chirilgan bo'lib, birinchisi Abduljamil kotib tomonidan "Xamsa"ning tugagan yili yozilgan, ikkinchisi Sulton Ali kotib tomonidan 1492/93-yilda yozilgan" [Навоий 1948, 3]. Qolaversa, qiyoslash jarayonida boshqa manbalarga ham tayanilgan. Biroq bu nusxalar haqida hech qanday ma'lumot berilmagani biroz shubha uyg'otadi. Bizningcha, ma'lum bir asar nashriga asos bo'lgan qo'lyozma nusxalar haqida qisqacha bo'lsa-da, izoh berilishi shart. Chunki shu asar ustida tadqiqot olib boruvchilar uchun kichik ma'lumotlar ham muhim sanaladi.

2. "Layli va Majnun". II jildning 3-kitobi hisoblangan ushbu nashri ham hajm jihatdan avvalgisi bilan bir xil bo'lib, nasriy ifoda berilmagan. Dostonning mazkur ikkinchi nashrining boshqalaridan eng afzal jihati va yutug'i uning ilmiy-tanqidiy matnga asoslanganligidir.

Qayd etish joizki, ommaviy nashrlarning muvaffaqiyatli chiqishida ilmiy-tanqidiy matnlarning ahamiyati juda katta: birinchidan, ularda eng ishonchli qo'lyozma nusxalar aniqlanadi va tayanch nusxalar saralanadi; ikkinchidan, farqli o'rinlar ilmiy apparatda qayd etib boriladi; uchinchidan, o'zaro qiyoslash natijasida originalga yaqin matn tiklanadi. Shu bois ular asosida tayyorlangan ommaviy va akademik nashrlarga ishonch yuqori bo'ladi.

G.Karimov "Layli va Majnun" dostonini nashrga tayyorlashda 1944-yili yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasi doirasida o'zi tuzgan ilmiy-tanqidiy matnga va yana bir qancha qadimiy qo'lyozma manbalarga tayanadi. Mazkur nashrga yozilgan so'zboshida olim quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Bu ilmiy-tanqidiy tekst Toshkent kutubxonalarida saqlanmoqda bo'lgan eng mo'tabar va eng eski

nusxalar asosida hozirlangan edi:

1) O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharq qo'lyozmalarini o'rganish institutidagi 5018-raqamli XV asrga mansub qo'lyozma nusxa;

2) O'zbekiston Fanlar Akademiyasi adabiyot muzeyidagi 149-raqamli XV asrga mansub qo'lyozma nusxa;

3) O'zbekiston Fanlar Akademiyasining fundamental kutubxonasidagi 208-raqamli XVI asrga mansub qo'lyozma nusxa;

4) Shomurod kotib tomonidan ko'chirilib, 1904-yilda Toshkentdagi Porsev litografiyasida bosib tarqatilgan nusxa" [Навоий 1949, 22].

Demak, nashr ishlarini ilmiy-tanqidiy matn doirasida olib borish eng to'g'ri va samarali yo'l hisoblanadi. Nashrning bir qadar muvaffaqiyatli chiqishi ham bevosita mana shu omil bilan bog'liq.

3. "Sab'ai sayyor". Dostonning ikkinchi nashri ham P.Shamsiyev tomonidan qadimiy qo'lyozmalar asosida tayyorlangan [Шамсиев 1969, 4]. Nashrning o'zida bu qo'lyozma nusxalar haqida biror jumla uchramaydi. Shunday bo'lsa-da, olimning keyingi ishlarida keltirilgan ma'lumotlar mazkur nashrda ham Abduljamil va Sulton Ali Mashhadiy nusxalariga tayanib ish olib borilganini ko'rsatadi.

4. "Saddi Iskandariy". P.Shamsiyev tomonidan tayyorlangan ushbu dostonning nashri ham tajribadan o'tkazilgan prinsip-larga qayta murojaat qilish yo'li bilan bajarilgan. Ishlash uchun tanlab olingan qo'lyozma nusxalar haqida nashrning o'zida ma'lumot berib o'tilgan: "Bu doston ham ilgari nashr etilgan "Farhod va Shirin" (II tomning III kitobi) va "Sab'ai sayyor" (IV kitob) dostonlari kabi eng eski va eng mo'tabar ikki qo'lyozma asosida tayyorlandi" [Навоий 1949, 5]. Nashr avvalida kelgan so'zboshida ikki qo'lyozma – Abduljamil va Sulton Ali Mashhadiy nusxalariga qisqacha tavsif berilib, ularning o'zaro farqli jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari, uning yana bir afzalligi – qo'lyozma manbalardagi matn to'g'ridan-to'g'ri, mexanik ravishda ko'chirilmay, tafovutli o'rinlar imkon qadar o'rganilgan va to'g'ri variantlar tanlab olingan. Lug'at, tarixiy va afsonaviy siymolar nomlari izohi ilova qilingan.

Yuqorida ko'rib o'tilganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, bu davrga kelib amalga oshirilgan tadqiqotlar navoiyshunoslik sohasining ancha ilgariga siljiganini va muayyan darajada yuqori bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Hatto, ilmiy-tanqidiy matn tuzish tajribalari ham qo'llanila boshlangani eng katta yutuqlardan edi.

Albatta, bu davrda ushbu asarlarning turli kamchilik va

nuqsonlar bilan nashr qilinganligi sir emas. Mazkur ilk tadqiqotlar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lganidan qat'iy nazar, ularning barchasi navoiyshunoslik va matnshunoslik taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

Ta'kidlash joizki, urushgacha bo'lgan nashrlarning barchasi amaliy faoliyat zahirida yuzaga keldi. Davr taqozosiga ko'ra faoliyat olib borgan olimlar fikran faraz qilib ko'rishga nisbatan amaliy eksperimentni ma'qul ko'rdilar va nashrlar ko'lamini kengaytirish ustida tinimsiz mehnat qildilar. Umuman olganda, har ikki davrdagi ishlardan orttirilgan ana shunday katta-kichik amaliy tajribalar bugungi zamonaviy matnshunoslik tamoyillari, uslub va metodlarining shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

Shu o'rinda ayrim mulohazalarni bildirishni ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Dastlabki davrda, ya'ni jahon urushidan oldin Navoiy "Xamsa"sini tashkil etgan dostonlar matnini tayyorlashda aniqlangan qo'lyozma manbalarning ko'lami juda kam edi. Ayniqsa, ular ichida qadimiy va ishonchlilari deyarli mavjud bo'lmagan. Shu bois e'lon qilingan aksariyat ishlar topilgan va ba'zan tasodifiy qo'lyozma nusxalarga murojaat qilinishi orqali amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ayrim nashrlar mavjud siyosiy tuzum mafkurasidan kelib chiqib, muayyan qisqartirishlarga uchradi yoki umuman chop etilmadi. Jumladan, yuqorida tilga olingan "Hayrat ul-abror" dostonining chop qilinmagani bevosita uning g'oyasi, botiniy va zohiriy xossalari bilan bog'liq ekanini ta'kidlash joiz. Doston, tom ma'noda, ilohiyot mavzusida bitilgan bo'lib, unda Yaratuvchi ilmi va qudrati hamda komil inson e'tiqodi haqida so'z boradi [Сирожддин-нов 2021, 7]. Asarning ayni shu sifatlari zamon siyosati, mafkurasiga mutlaqo zid edi. Shu bois u nashr etiladigan asarlar rejasidan tushirib qoldirilgan. Holbuki, mazkur doston professor N.Jabborov ta'biri bilan aytganda, "Xamsa"ning kaliti [Jabborov 2010, 4] bo'lib, u keyingi to'rt doston mohiyatini anglashda o'ta muhim sanaladi.

Qisqa qilib aytganda, davrning mafkuraviy cheklovlari navoiyshunoslik fani rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lgan edi. Achinarli holatlardan yana biri – Navoiy asarlarini talqin qilishda rus adabiyotshunosligining qoliplaridan foydalanilganidir. Jumladan, Navoiyning estetik qarashlari tadqiq etilgan bir ishning o'nlab joyida "dohiy"lar-u rus yozuvchilarining adabiy qarashlariga ishoralar qilinadi, ularning fikrlariga tayaniladi.

Shu o'rinda mazkur davr bilan bog'liq muhim bir jihatni eslash zarur. Matnshunos Sh.Sirojiddinov ushbu yillar haqida: "Adabiyotshunosligimiz tarixida "tashnalik" bosqichi bo'lgan. Xalqni

tezroq va ko'proq adabiyot bilan ta'minlash, ularning ma'rifatini oshirish davr talabiga aylangan vaqtlar bo'lgan", deydi [ЎзАС 2010, 4]. Umuman olganda, xalqni ma'naviy yuksaltirishga katta ehtiyoj sezilgan. Ko'rib o'tilgan nashrlarni, avvalo, mana shu ehtiyoj talabidan amalga oshirilgan ishlar sifatida baholash kerak.

To'g'ri, istiqlolgacha bo'lgan navoiyshunoslikning cheklangan tomonlari ko'p edi. Jumladan, mutafakkirning ijod konsepsiyasi aks etgan hamd, na't, munojot qismlar qisqartirilgan, diniy-irfoniy, tasavvufiy mavzular doim chetlab o'tilgan. Holbuki, Navoiy ijodining eng muhim qirralari, buyuk shoirning g'oyaviy pozitsiyasini ularsiz to'g'ri anglash mushkul. Professor N.Jabborov matn tarixi va Navoiy lirik devonlari xususida fikr yuritib, ayni masalaga ham diqqat qaratadi: "...hazrat Alisher Navoiy lirik devonlaridagi hamd va na't mazmunidagi she'rlarda muallif dunyoqarashining, ijod konsepsiyasining asoslari ifodalangan" [Жабборов 2020, 21]. Matnshunos olim O.Jo'raboyev ham bu borada shunday fikr yuritadi: "Alisher Navoiyning dostonlari tarkibiga mansub hazrati Muhammad Mustafo (s.a.v.)ga bag'ishlangan qismlar – na'tlar bevosita doston mazmun-mohiyatini asoslashga xizmat qiladigan uzviy bo'lakdir" [Жўрабоев 2017, 40].

Hech shubhasiz, yuqoridagi fikrlar to'liq asosga ega. Ustoz matnshunoslar mulohazalariga qo'shilgan holda masalaning boshqa tomoniga ham e'tibor qaratmoqchimiz. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov ta'biri bilan aytganda: "Yaqin o'tmishdagi tadqiqotlarda hukmron mafkura belgilab bergan metodologiya ta'siri aniq sezilib turadi. Biroq o'sha davr navoiyshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlardan ko'z yummasligimiz darkor [Хайитметов 1996, 6]. Sir emaski, ulug' allomaning dunyoqarashi asosini faqat diniy, tasavvufiy g'oyalar emas, balki dunyoviy bag'rikenglik ham tashkil etadi. Shoir ijodida yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan g'oyalar ham katta o'rin egallaydi. Umuman, mazkur asar falsafiy-axloqiy qarashlarning talqiniga bag'ishlangani bilan ham ahamiyatli. Bizningcha, ushbu davr olimlarining maqsadi ham hech bo'lmaganda, xalqni daho ijodkor siymosi bilan tanitish barobarida, uning ana shunday muhim g'oyalari, ilg'or konsepsiyalarini targ'ib qilish bo'lgan.

Xulosa

Yuqoridagi kuzatishlar asosida quyidagicha xulosalarga keldik:

Birinchidan, dastlabki va undan keyingi nashrlar Navoiy "Xamsa"si, uning mazmun-mohiyati haqida umumiy tasavvur berishi

bilan ahamiyatli. Ular shoir she'riyatining formal xususiyatlari, nazariy asoslari ustidagi tadqiqotlarda muhim manba vazifasini bajargan va navoiyshunoslik ilmining rivojlanishiga zamin yaratgan.

Ikkinchidan, mazkur davrda amalga oshirilgan "Xamsa" nashrlari ba'zi nuqsonlar bilan chiqishiga qaramay, olingan ilmiy natijalar va orttirilgan tajribalar boshqa mumtoz asarlar nashrlari takomiliga xizmat qildi.

Uchinchidan, sobiq ittifoq davrida turli qisqartirishlar va cheklovlar bilan nashr etilgan bu asarlarga, odatda, tanqidiy qaralsada, bugungi davr navoiyshunosligi va matnshunosligi taraqqiyoti ular bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar

- Alisher Navoiy. 1940. *Xamsa*. Qisqartirib basmaga tajjarlavchi S.Ajniy. Ўқувпеднашр. Тошкент.
- Ҳамроева, О. 2019. *XX аср бошларида ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни*. Тошкент: Академнашр.
- Жабборов, Н. 2020. "Матн тарихини ўрганишнинг муқобала услуги". *Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари*: Республика II илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент: Фан.
- Жўрабоев, О. 2017. *Матннинг матноти сирлари*. Тошкент: Тамаддун.
- Каримов Ғ. 1944. Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" асари критик тексти: Филология фанлари номзоди... дисс. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1948. *Фарҳод ва Ширин*. Танланган асарлар. II том. 2-китоб. Нашрга тайёрловчи Ғафур Ғулом. Тошкент: Ўздавнашр.
- Навоий, Алишер. 1949. *Лайли ва Мажнун*. Танланган асарлар. II том. 3-китоб. Нашрга тайёрловчи Ғулом Каримов. Тошкент: Ўздавнашр.
- Навоий, Алишер. 1949. *Садди Искандарий*. Танланган асарлар. II том. 5-китоб. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. Тошкент: Ўздавнашр.
- Волин, С.Л. 1946. *Описание рукописей произведений Навои в Ленинградских собраниях, "Алишер Навои"*. Сборник статей. Москва.
- Семенов, А.А. 1940. *Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в государственной библиотеке*. Ташкент: УзГостехиздат.
- Сирождидинов, Ш. 2019. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент: Navoiy universiteti.
- Фитрат. 2000. "Фарҳод ва Ширин" достони тўғрисида. Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент: Маънавият.
- Фитрат. 1919. *Инсоният ҳақида Навоийнинг фикри*. Тошкент: Мусулмон Иштирокиюн фирқаларнинг ўлка бюроси ҳузуридаги нашриёт шўъбаси.
- Ҳабибуллаев, А. 2000. Адабий манбашунослик ва матншунослик.

Тошкент.

Ҳайитметов, А. 1996. "Шеърки, ҳам тушти менинг бошима". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати* 9 февраль.

Шамсиев, П. 1969. *Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари*: Филология фанлари доктори... дис. Тошкент.

8291 اده بیاتی نه مونه له ری / ۱ جیلد، توزگه ن/ فیتره ت، اوزنه شر، تاشکینت/ سه مه رقه ند، از بیک

حمسه. نوابعلیشیر. Котиби Муҳаммад Юсуф бинни Бердимурод сўфи, Хива, 1880.

The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa

Giyosiddin Shodmonov¹

Abstract

In the middle of the last century in the field of Uzbek textology and source studies, significant achievements have been made in the study of Alisher Navoi's works, in particular, in implementation of mass publications of the poet's epics "Khamsa" and compilation of their scientific-critical texts. Porso Shamsiev is a textologist who created a school for the study of manuscripts of the Khamsa epics and composed its scientific and critical texts. His contribution to many publications created during this period is great. Therefore, the study of scientific and practical activities of the scientist in this field, the acquisition of his scientific experience, as well as the theoretical examination of publications made by P. Shamsiev and his direct participation are among the priorities of textology studies. Of course, the study of the activities of scholars, the mastery of their experience in publishing and composing scientific-critical texts is very important in the formation of new views in the field of textology, its scientific and theoretical basis, in general, in finding solutions to existing problems. This article analyzes the history of the publication of the epics "Khamsa" and related processes, in general, the first achievements of Uzbek textual studies, the experience gained and their significance, as well as relevant scientific con-

¹ *Giyosiddin N. Shodmonov* – Doctoral student of Karshi State University.

E-mail: shodmonov786@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0778-8385

For citation: Shodmonov, G.N. 2021. "The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa". *Golden scripts* 2: 50-63.

Key words: *textology, source studies, Navoi, Hamsa, manuscript, copy, scientific-critical text, publication, epic, work, volume, prose statement, explanatory, dictionary.*

References

- Alisher Navoiy. 1940. *Xamsa*. Qisqartirib basmaga tayyarlavchi S.Ajniy. O'quvpednashr. Toshkent.
- Hamroeva, O. 2019. *XX asr boshlarida o'zbek matnshunosligi taraqqiyotida Fitrat majmualarining o'rni*. Toshkent: Akademnashr.
- Jabborov, N. 2020. "Matn tarixini o'rganishning muqobala uslubi". *O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari: Respublika II ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. Toshkent: Fan.
- Juraboev, O. 2017. *Matnning matnosti sirlari*. Toshkent: Tamaddun.
- Karimov G'. 1944. Navoiyning "Layli va Majnun" asari kritik teksti: Filologiya fanlari nomzodi... diss. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1948. *Farhod va Shirin*. Tanlangan asarlar. II tom. 2-kitob. Nashrga tayyorlovchi G'afur G'ulom. Toshkent: O'zdavnashr.
- Navoiy, Alisher. 1949. *Layli va Majnun*. Tanlangan asarlar. II tom. 3-kitob. Nashrga tayyorlovchi G'ulom Karimov. Toshkent: O'zdavnashr.
- Navoiy, Alisher. 1949. *Saddi Iskandariy*. Tanlangan asarlar. II tom. 5-kitob. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiev. Toshkent: O'zdavnashr.
- Volin, S.L. 1946. *Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi v Leningradskix sobraniyax, "Alisher Navoi"*. Sbornik statey. Moskva.
- Semenov, A.A. 1940. *Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi, xronyashixsya v gosudarstvennoy biblioteka*. Tashkent: UzGostexizdat.
- Sirojiddinov, Sh. 2019. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: Navoiy universiteti.
- Fitrat. 2000. "*Farhod va Shirin*" dostoni to'g'risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent: Ma'naviyat.
- Fitrat. 1919. *Insoniyat haqida Navoiyning fikri*. Toshkent: Musulmon Ishtirokiy qirqalarning o'lka byurosi huzuridagi nashriyot sho'basi.
- Habibullaev, A. 2000. *Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik*. Toshkent.
- Hayitmetov, A. 1996. "She'rki, ham tushti mening boshima". *O'zbekiston adabiyoti va san'ati* 9 fevral.
- Shamsiev, P. 1969. *Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari: Filologiya fanlari doktori... dis*. Toshkent.
- 8291 اده ببياتی نه مونه له ری / ۱ جیلده، توزگه ن/ فیتره ت، اوزنه شر، تاشکینت/ سه مه رقه ن، از بیک
- 8291 اده ببياتی نه مونه له ری / ۱ جیلده، توزگه ن/ فیتره ت، اوزنه شر، تاشکینت/ سه مه رقه ن، از بیک
- Kotibi Muhammad Yusuf binni Berdimurod so'fi, Xiva, 1880. حمسه

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida

muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili

(URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniyl adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Qaydlar uchun

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.
e-mail: goldenscripts@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 30. 06. 2021-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62